Materiallar to'plami · Conference Proceedings
"ZAMONAVIY TADQIQOTLAR VA BARQAROR RIVOJLANISH" respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi
04 August 2026
UDK 82
IJTIMOIY-GUMANITAR FANLAR

Abdulla Qodiriyning "Shubha"si

Kozimjon Isoqovich Qosimov*
Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti "Ijtimoiy fanlar" kafedrasi katta o'qituvchisi
✉ kozimzonkosimov3@gmail.com

ANNOTATSIYA

Maqolada Abdulla Qodiriyning "Shubha" nomli hikoyasi ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan. Asardagi voqelik, epik tafakkur miqyosi, mavzu qamrovi hamda personajlar dunyoqarashining asl mohiyati yoritib berishga harakat qilingan, hamda "Obid ketmon" qissasi bilan "Shubha" hikoyasi qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar

Romanchilik, hikoyanavislik, publitsistika, janr, qiyos, kollektivlashtirish, kolxozlashtirish.

DOI: 10.5281/zenodo.21743568

Kirish.

Abdulla Qodiriy – XX asr o'zbek mumtoz adabiyotining yirik vakili, o'zbek romanchilik maktabining asoschisi, shu bilan birga, o'zbek millati, qo'yingki, butun insoniyat uchun adabiy, publitsistik asarlari bilan bebaho ma'naviy meros qoldirgan buyuk adibdir. Uning "O'tkan kunlar", "Mehrobdan chayon" kabi go'zal asarlari xali hanuz zamonaviy o'zbek kitobxonlarining sevimli asarlari qatoridan joy olishi bilan bir qatorda, qayta-qayta o'qib huzurlanish, ma'naviy zavq olishlariga sabab bo'lmoqda.

Bugungi kunda A. Qodiriyning dunyoqarashi, hayoti, asarlari ko'plab qodiriyshunoslar, adabiyotshunoslarning tadqiqot obyektiga aylangan bo'lib, u haqda olib borilgan ilmiy ishlanmalarning umumiy soni mingdan ortadi. Tabiiyki, ularning barchasi sevimli adibimizning oddiy kitobxon uchun notanish bo'lgan tomonlari, ochilmagan qirralari yoki Qodiriyni anglash yo'lidagi qaysidir kemtikni to'ldirishga xizmat qiladi, albatta.

Quyida biz, Abdulla Qodiriyning ilmiy tadqiqotchilar tomonidan kamroq o'rganilgan va albatta, barchaga tanish bo'lgan kichik bir asari – "Shubha" hikoyasiga e'tiborni qaratib, uni ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil etishga jazm etdik.

Asosiy qism. Hikoyaning yozilishi adib hayotining so'nggi yillari (1935-yil) ga to'g'ri keladi. Ya'ni, bu davrga kelib uning so'nggi yirik asari "Obid ketmon" qissasi bosilib chiqqan va u o'sha davr talabi – sovet hokimiyati tuzumi uchun muhim hodisa hisoblanadi. Muhimlik jihati shundaki, XX asrning 30-yillarida sovetlarning mamlakat bo'ylab olib borayotgan kuchli kolxozlashtirish siyosati mohiyatini oddiy xalq uchun tushunarli va jozibali usulda yetkazish, avomni o'zligidan voz kechib, butunlay notanish, yangi tuzum, yangi mafkura ostida birlashtirish, ularni boshqarish bo'lgan.

O'quvchiga ayonki, A. Qodiriy o'zining barcha yirik hajmli asarlarida davr manzarasi keng ko'lamda yoritiladi. Jumladan, "Obid ketmon" asari ham bundan mustasno emas, unda 1920-1930-yillar oralig'idagi qishloq hayoti, kolxozlashtirish voqealari, quloqlashtirish va shu kabi jarayonlardagi ziddiyatlar, murakkabliklar tilga olinadi. Voqelikni epik tafakkur miqyosi, mavzu qamrovi va asar qahramonlari zimmasiga yuklatilgan badiiy yukka qiyosan asar, albatta, roman darajasidagi yirik bir qissa qolipiga tushadi. Biroq, "Shubha" o'z nomi bilan hikoya bo'lib, unda butun bir jarayon – voqelikning ayrim tomonlarigina yoritilgandir. Asar qahramonlarining o'ziga xos xarakter xususiyatlariga muallif batafsil to'htalib o'tmaydi, binobarin, hikoyachi-

lik talablari ham buni inkor etadi, biroq qahramonlarning gaplari, xatti-harakatlariga monand o‘quvchi hikoyani o‘qish jarayonida o‘z xulosasini chiqaraveradi. Ikkala asar mavzulari ham o‘hshash, ularda kollektivlashtirish siyosati, qishloq hayoti asosan, tilga olinadi.

Hikoyada qaysidir bir qishloq, kolxoz (joy nomi berilmagan)da ro‘y bergan jinoyat va uning ochilishi haqida so‘z boradi. Emishki, mazkur qishloqda, shu yaqin o‘tkan kunlar oralig‘ida uch gektar g‘o‘zaga hufiyona, yashirincha kim tomonidandir suv bostirilib, ikki ming bog‘ quruq bedaga o‘t qo‘yilgan. Albatta, yondirilgan quruq beda – kolxoz mulki, qolaversa, g‘o‘zalarni suvga bostirish ham kechirilmas jinoyat, biroq uni kim amalga oshirgan, mana shu narsa jumboq.

Hikoya mana shu jinoyatni batafsil o‘rganish va chora ko‘rish maqsadida maxsus tuzilgan, markazdan kelgan komissiyaning mazkur xo‘jalik idora a’zolari bilan o‘tkazgan majlisi syujetidan boshlanadi.

“ – Kolxozimizda va qishlog‘imizdag‘i yakka xo‘jaliklar orasida bunchalik jinoyatga jasorat qila olaturg‘an dushmanlar topilar, deb o‘ylay olmayman, - dedi kolxoz raisi G‘oziyev so‘zining oxirida, - balki men yanglisharman... Yanglishgan bo‘lsam, mana, o‘rtoqlar yana bu to‘g‘rida o‘z fikrlarini aytsinlar!” [1,B.439].

Tabiiyki, idora a’zolari kolxoz raisining gaplarini ma’qullaydilar. Bu holatga e’tiroz qila olmagan komissiya raisi Xoldorov, chuqur tin olgach:

“ – Xayr, ... qishlog‘ingizga shu o‘n kunning ichida chetdan hech kim kelganmidi?”[1,B.439], – deya savol beradi. Bu savol o‘rinli edi. Chunki, qishloqdagi har bir fuqaroga ishonch, kafolat berib turilgan chog‘, chetdan kelgan yot kimsadan shubhalanish, mantiqan to‘g‘ri edi. Shu payt idoraning barcha a’zolarining nigohi kolxoz xo‘jalik mudiri Zuhurovga qadaladi. Buni o‘z vaqtida payqagan komissiya raisi Xoldorov Zuhurovni savolga tutadi.

“ – Sakkiz kundan buyon menim bir mehmonim bor, ... menga qolsa, bizning qishloqqa shu voqeadan ilgari va keyin ham hech kim kelgan emas...” [1,B.439], - deydi.

Zuhurov so‘zining davomida o‘z mehmonining kim ekanligi haqida batafsil gapirib beradi: mehmon – shaharlik, “Qizil sharq” zavodi ishchisi, kommunist... Zuhurov u bilan kolxoz tuzilgunga qadar shaharda, mazkur zavodda birga ishlab, qalin do‘st bo‘lib qolishgan, hozir esa u mehnat ta’tilida bo‘lgani sababli hordiq chiqarish uchun kelgan. Undan shubhalanish to‘g‘ri ish emas, deydi. Biroq, shunday bo‘lsa ham komissiya raisi mehmon haqida batafsil surishtiradi: uning qanday istirohat olishi, nimalar bilan mashg‘ul bo‘layotgani, hatto bo‘lib o‘tgan voqea haqida Zuhurovning unga gapirgani va albatta, mehmonning fikri haqida ham...

“ – Kecha va o‘tgan kungi voqealar to‘g‘risida mehmoningiz qanday fikrda? – Quloqlar ishi, degan mulohazani bildiradi.

- Siz, o‘zingiz mehmonning fikriga qo‘shilasizmi?

- Yo‘q, men qo‘shila olmayman, ... chunki, oramizdagi chet unsurlarni yaxshi tozalaganmiz!” [1,B.440], - deydi.

Majlis yakunida komissiya a’zolari hech bir natijaga erisha olmay, quruq akt yozib qaytishga majbur bo‘ladilar.

Hikoyada tasvirga olingan mazkur syujet mana shu tarzda jumboqli yakuniga yetadi. Voqealar rivojini o‘qish jarayonida bevosita shu xulosaga kelish mumkin-ki, bu A. Qodiriy ijodidagi yangi yo‘nalish – detektiv janri edi: xuddiki, Konan Doyl hikoyalarini o‘qigan kabi o‘quvchi voqelik sir-sinoatlarini ochishga oshiqadi.

Zuhurov kechki payt uyiga borgach, mehmoni – To‘ychiboyevga bugungi majlis haqida gapiradi va gap orasida komissiya raisining To‘ychiboyevga nisbatan shubhasi haqida ham qistirib o‘tadi. Avvaliga To‘ychiboyev bu shubhaga e’tibor bermaganday ko‘rsatadi o‘zini, lekin tun mahali, uyquga yotar chog‘ uning o‘zi bu haqda so‘z ochadi va o‘zini oshkor qiladi: so‘zining boshida ular qurayotgan kommunistik jamiyatning muqaddasligi va partiyaviy hushyorlik haqida va’z o‘qiydi, qishloq omi odamlarining quloqlarga, jamiyat dushmanlariga qarshi kurash olib borish qobiliyatining pastligi, qoloqligida ayblaydi.

“ – Men sizning qishlog‘ingizning va rayoningizning dushman bilan kurasha bilish iqtidorini sinab ko‘rish uchun shu uch-to‘rt kunning ichida ikki zararkunandalik qildim: ulardan birisi, uch gektar g‘o‘zani suvga bostirish, ikkinchisi, ikki ming bog‘ quruq bedani yondirish bo‘ldikim, bu sizga ma’lum!” [1,B.445], – deydi.

“– Endi men uchinchi zararkunandalikka o‘taman... Bir oy sizning qishlog‘ingizda dam oladigan

bo‘lsam, kolxozingizning kulini ko‘kka sovurishimdan shubham yo‘q... Men bu ishda yolg‘iz emasman...” [1,B.446]„ - deb o‘zi tomonidan yollagan shu qishloqlik uch nafar kimsa haqida ham ochiqlaydi.

So‘zining isboti sifatida bu kimsalarni Zuhurovga ko‘rsatishini aytib, u bilan tun qorong‘usida ular joylashgan xonadonga borishga undaydi. Voqealar rivoji shunday davom etadiki, To‘ychiboyev bilan Zuhurov belgilangan joyga yetib borgan mahal, o‘sha uchchala kimsaning navbatdagi – uchinchi zararkunandalikni amalga oshirish uchun ketayotganlariga duch keladilar. Hikoyaning mana shu qismida To‘ychiboyevning sirli g‘oyib bo‘lishi o‘quvchining e’tiborini tortadi, biroq adib bu haqda ma’lumot bermaydi.

Yolg‘iz qolgan Zuhurov tun qorong‘usida o‘sha uchchala kimsa ortidan tushadi va ular bilan to‘qnash kelgan chog‘ Zuhurov o‘zi bilan olib borgan ov miltig‘i bilan ularning birini otib o‘ldiradi. Qolgan ikkitasi qochib qutuladi va shu payt qayerdandir To‘ychiboyev yetib keladi: uning o‘ng qo‘li, tirsak qismidan yengil yaralangan edi...

Albatta, g‘oyib bo‘lgan o‘sha ikkala kimsani ham ular vaqtincha qo‘ngan xonadondan olamon yordamida tutib keladilar va ehtiyot shart, tong yorishguncha kolxoz idorasiga qamaydilar...

“Tun bo‘yi uyqusiz kechingan To‘ychiboyev bilan Zuhurov indashmasdangina qo‘rg‘onga qaytib borar edilar. Ko‘p qon og‘gandan yoki tong salqini tushgandanmi, baharhol, To‘ychiboyev o‘z vujudida bir uvushish, titroqqa yaqin bir qaltirash his qilar edi.

...Sharq ufqidan asta-asta qorong‘ulik ko‘tarilib, o‘rniga subhi sodiq joylashmoqda edi” [1,B.455].

Xulosa. Hikoya shu joyda nihoyasiga yetadi. Hammasi risoladagiday – yaxshilik bilan tugadi. Biroq, savol tug‘iladi: voqelikning, jinoyatning asl sababi kim, jinoyatchilarni yollagan, shu ishni qilishga undagan kimsa nega g‘oliblar kabi hordiqqa hotirjam ketmoqda?

Yaxshilab o‘ylab qaralsa, Abdulla Qodiriyning hikoyani yozib, asl aytmoqchi bo‘lgan fikri oydinlashadi, ya’ni adib o‘z yurtinig farzandi, milliy mustaqillik, ozodlik tarafdori edi. Sovetlar mamlakatining o‘zi egallab olgan yurtlaridagi asl farzandlarni, yakdil, baxamjihat yashovchi millat o‘rtasida mana shu kabi ayyoyorona o‘yinlar o‘tkazib, bir-biriga qarshi qilib qo‘yishni siyosat darajasiga olib chiqqan edilar. Buni o‘z vaqtida anglab yetgan adib oxir-oqibat mana shunday “shubha”dan baribir, qutula olmadi, uning qurboniga aylandi...

Adabiyotlar:

1.Абдулла Қодирий. Беш жилдлик. III жилд. Диёри бакр. – Т.: Info Capital Group, 2017.